



TASHQI SAVDO SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY Tajribalar tahlili

ANALYSIS OF ADVANCED INTERNATIONAL PRACTICES IN THE IMPLEMENTATION OF FOREIGN TRADE POLICY

**¹Ibadullayev Ergash
Bakturdiyevich**

¹*"Ma'mun universiteti" NTM, Iqtisodiyot fakulteti dekani, PhD, dotsent.
G-mail: ergashibadullaev90@gmail.com*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada jahon bozorida yetakchi o'rin tutuvchi davlatlarning tashqi iqtisodiy faoliyati chuqur tahlil qilinadi. Xususan, AQSh, Xitoy, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo siyosatlari, eksport-import strategiyalari, proteksionizm va liberallashtirish tamoyillaridagi yondashuvlari o'rganilgan. Mazkur davlatlarning savdo siyosati vositalari, bojxona-tarif siyosati, erkin savdo bitimlari va mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtiroki tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun tashqi savdo siyosatini takomillashtirish bo'yicha konseptual xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Eng. - This article provides an in-depth analysis of the foreign economic activities of leading global economies. In particular, it examines the trade policies, export-import strategies, and approaches to protectionism and liberalization in countries such as the United States, China, Germany, Japan, South Korea, and Singapore. Special attention is given to trade policy instruments, customs tariff regulations, free trade agreements, and participation in regional integration processes. The findings of this study serve as a foundation for developing conceptual conclusions and practical recommendations aimed at improving Uzbekistan's foreign trade policy.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *rivojlangan mamlakatlar, eksport, import, tashqi savdo siyosati, bojxona-tarif siyosati, integratsiya.*
❖ *developed countries, export, import, foreign trade policy, customs tariff policy, integration.*

Kirish.

Bugungi globallashtirish davrida tashqi savdo siyosati har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, innovatsiyalar almashinuvi, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlik darajasining oshishi ko'p jihatdan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalariga va ular tomonidan olib borilayotgan savdo siyosatiga bog'liq.

Jahon savdo tashkiloti (WTO) va BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilga kelib global tovar va xizmatlar savdosi hajmi 32 trillion AQSh dollaridan oshgan. Bu ko'rsatkich jahon yalpi ichki mahsulotining (YAIM) deyarli yarmiga teng bo'lib, xalqaro savdoning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar tashqi savdo orqali o'zlarining texnologik

ustunliklarini mustahkamlash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportini kengaytirish hamda global ta'minot zanjirlarida ustunlikni qo'lga kiritishga erishganlar [1].

Tashqi savdo siyosati nafaqat iqtisodiy o'sish va valyuta tushumlarini oshirishga, balki mamlakat ichki bozorining raqobatbardoshligini kuchaytirishga, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv uslublarini jalb etishga ham xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlar bu borada turli xil strategik yondashuvlardan foydalanadi: ayrimlari erkin savdo sharoitlarini yaratishga urg'u bersa, boshqalari strategik sohalarni himoya qilish uchun selektiv proteksionistik choralarni qo'llaydi. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi ayrim sanoat tarmoqlarini davlat yordami bilan qo'llab-quvvatlaydi, Yaponiya esa texnologik mahsulotlar eksportini ilgari surishga alohida e'tibor qaratadi [2].

Mazkur maqolada aynan ilg'or xorijiy davlatlar tomonidan olib borilgan tashqi savdo siyosati strategiyalari, ularning asosiy yo'nalishlari, qo'llanilgan iqtisodiy vositalar va bu siyosatning milliy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu mamlakatlar tajribasining O'zbekiston sharoitiga qanchalik mos kelishi va milliy tashqi savdo siyosatini takomillashtirishda qanday foydali jihatlarni olish mumkinligi masalasi yoritiladi. Ushbu tahliliy yondashuv O'zbekistonning tashqi savdo siyosatini yanada samarali va raqobatbardosh qilishda, xalqaro iqtisodiy integratsiyada faol ishtirokini ta'minlashda va eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tashqi savdo siyosati masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar ikki asosiy guruhga

bo'linadi: xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va amaliy yondashuvlar hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan hududiy va milliy tahlillar.

Xorijiy tadqiqotchilar tashqi savdoning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishda klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalarga tayangan holda bir qator nazariy asoslarni yaratganlar. Jumladan, Adam Smitning "erkin savdo" g'oyasi va David Rikardoning "komparativ ustunlik" nazariyasi xalqaro savdoning afzalliklarini tushuntiruvchi dastlabki konsepsiyalar sifatida xizmat qilgan. Keyinchalik bu yondashuvlar Paul Krugman va Elhanan Helpman kabi iqtisodchilar tomonidan yanada rivojlantirilib, "yangi savdo nazariyasi" konsepsiyasiga asos solindi. Krugmanning fikriga ko'ra, tashqi savdo nafaqat mavjud ustunliklarga tayanish, balki ichki ishlab chiqarishning ko'lam iqtisodidan foydalanish orqali yangi imkoniyatlar yaratadi.

Richard Baldwin [3] esa "The Great Convergence" nomli asarida axborot texnologiyalari va logistika infratuzilmasining taraqqiyoti natijasida rivojlangan mamlakatlar global savdo zanjirlaridagi ustunligini qanday mustahkamlab borayotganini chuqur tahlil qilgan. Dani Rodrik [4] esa "The Globalization Paradox" asarida erkin savdo va milliy siyosat o'rtasidagi ziddiyatlarga e'tibor qaratib, har bir davlat o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib tashqi savdo siyosatini yuritishi lozimligini ta'kidlaydi.

Xalqaro tashkilotlar — Jahon savdo tashkiloti (WTO), Jahon banki, IMF, UNCTAD [5] — tomonidan tayyorlanadigan tahliliy hisobotlar rivojlangan mamlakatlar tomonidan olib borilayotgan savdo siyosatining holati, o'zgarish dinamikasi, qo'llanilayotgan vositalar va erkin savdo bitimlarining iqtisodiyotga ta'sirini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, WTO'ning Trade Policy Review hisobotlarida AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarning tarif, subsidiyalar va savdo bitimlari orqali iqtisodiy

raqobatbardoshlikni qanday oshirayotgani yoritilgan [6].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa, asosan, O'zbekistonning tashqi savdo siyosati va rivojlangan mamlakatlar tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan. Jumladan, Q. Madraximov, B. X. Nasirov, Sh. Nurmuxamedov [7] kabi iqtisodchilar o'z ishlarida O'zbekistonning tashqi savdo tizimidagi tarkibiy muammolar, eksport tarkibining cheklanganligi, bojxona-soliq yukining yuqoriligi va logistika muammolari haqida fikr yuritganlar.

Sh.Nurmuxamedov [8] tomonidan olib borilgan tahlillarda Yevropa Ittifoqi va Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari tomonidan amalga oshirilayotgan erkin savdo bitimlarining milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'siri tahlil qilinadi. Q. Madraximov esa O'zbekiston eksportining diversifikatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan [9].

Mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarda tashqi savdoni liberallashtirish, bojxona tizimini soddalashtirish, eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni rag'batlantirish va savdo infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Ularning barchasi rivojlangan mamlakatlar tajribasini tanqidiy tahlil qilish va milliy sharoitga mos yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo siyosatini o'rganish orqali O'zbekiston tashqi savdo

siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish maqsad qilingan. Shu bois tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, empirik va sifat kontent tahlili kabi metodologik yondashuvlar va uslublardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida, mamlakatlar o'rtasida integratsiya jarayonlarini rivojlanishi asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Mamlakatlar o'rtasidagi integratsiyaning eng katta ko'rinishi esa bu albatta tashqi iqtisodiy aloqalardir. Butun jahon bo'yicha 2024-yilda jami tovarlar va xizmatlar savdosi 31.5 trillion AQSh dollariga yetdi va bu 2023-yilga nisbatan 4 foizga ko'proq o'sish sur'atlarini tashkil qildi. Tovarlarni savdosida 2 foiz xizmatlar sohasida 9 foiz o'ish kuzatilgan va o'z navbatida xizmatlar sohasi jami savdo hajmiga nisbatan 26.4 foizni tashkil qilib so'nggi 20 yildagi eng yuqori darajaga yetdi. Mintaqalar kesimida oladigan bo'lsak eksport sohasida eng katta o'sish Afrika (5.3%), Shimoliy Amerika (3.6%) va Yaqin Sharq (3.5%) tashkil qilgan, import bo'yicha Osiyo 5.6 foiz va Afrika 4.4 foizga o'sgan [10].

Mamlakatlar o'zlarining ustun jihatlaridan foydalangan holda savdo siyosatlarini olib borishi ushbu mamlakatlarning iqtisodiy rivoj topishida juda muhim ahamiyat kasb qilmoqda. Quyidagi jadvaldan hozirda jahon savdo bozorida eng yirik eksportyor va importyor davlatlar haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

1-jadval

Jahonning eng yirik tashqi savdoga ega mamlakatlari [10]

O'rin	Mamlakat	Eksport (\$ trln)	Import (\$ trln)	Jahon savdosidagi ulushi (%)
1	Xitoy	3.770	3.127	14.7 %
2	AQSh	3.018	3.966	14.5 %
3	Germaniya	2.039	1.914	7.6 %
4	Yaponiya	0.918	0.786	3.4 %
5	Buyuk Britaniya	1.015	0.592	3.2 %

6	Fransiya	1.007	0.786	3.2 %
7	Niderlandiya	1.004	0.603	3.1 %
8	Janubiy Koreya	0.823	0.643	2.8 %
9	Hindiston	0.767	0.733	2.7 %
10	Italiya	0.748	0.640	2.6 %

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek hozirda jahon bozorida Xitoy 14.7 foiz bilan yetakchilik qilmoqda, 2024-yil davomida ushbu mamlakat 3.7 trln AQSh dollari miqdorida eksport qilgan va 3.1 trln AQSh dollarlik mahsulot va xizmatlar sotib olgan bo'lsa undan keyingi o'rinlarda AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar o'rin olgan. Albatta mamlakatlarning tashqi savdo hajmi ushbu mamlakat aholi soni bilan ham bevosita bog'liq

hisoblanadi qancha ko'proq aholi mavjud bo'lsa shu darajada talab va taklif ham yuqori bo'ladi lekin ayrim davlatlarda eksportning YaIMdagi ulushu juda katta ulushga ega, misol uchun Luksemburg (212%), Singapur (229%), Gonkong (230%) [11].

Maqolada aynan jahon bozorida yuqori ustunlikka ega mamlakatlarning tashqi savdo siyosatlarini tahlil qilishni maqsad qildik va asosiy e'tiborni quyidagi jihatlariga asoslanib o'rgandik (2-jadval).

2-jadval

Rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo siyosatining tahlil omillari

Tahlil omili	Mazmuni / Asosiy yo'nalishlar
1. Bojxona-tarif siyosati	Import bojlari, eksport subsidiyalari, tarif eskalatsiyasi, bojxona to'lovlari bilan ichki ishlab chiqaruvchilarni himoyalash
2. Notarif cheklovlar (NTB)	Kvotalar, texnik reglamentlar, sanitariya va fitosanitariya talablar, litsenziyalar, bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha to'siqlar
3. Erkin savdo bitimlari (FTA)	Ikkimonlama va ko'ptomonlama savdo kelishuvlari, bojxona ittifoqlari, tariflarning bosqichma-bosqich bekor qilinishi
4. Eksportni rag'batlantirish	Soliq imtiyozlari, eksport kreditlari, eksportni sug'urtalash, maxsus eksport agentliklari (EXIM Bank, JETRO va boshqalar)
5. Sanoat va innovatsiya siyosati	Yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qilishni qo'llab-quvvatlash, sanoatni modernizatsiya qilish, startaplar va R&D faoliyatlarini rag'batlantirish
6. Valyuta siyosati va savdo balansini	Valyuta kursi orqali eksport-importni boshqarish, eksportchilar uchun qulay kurs siyosati, savdo balansini muvozanatlash
7. Global qiymat zanjirlari (GVC)	Xalqaro ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlaridagi ishtirok, komponentlar eksporti, korxonalarni xalqaro kooperatsiyaga jalb qilish

Ushbu jadvalda mamlakatlarning tashqi savdo siyosatiga asosiy ta'sir qiladigan omillardan asosiy 7 tasini keltirib o'tdik. Ushbu omillarning mamlakatlar tashqi iqtisodiy aloqalarini olib borishda ahamiyati yuqori hisoblanadi. Ko'rib turganimizdek bojxona tarif siyosati, turli xil cheklovlar, mamlakatlar bilan o'zaro savdo bitimlari, valyuta siyosatining

to'g'ri yo'lga qo'yilganligi mamlakat savdo aloqalarining rivoj topishiga olib keladi [12].

Ushbu maqolada AQSh, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Korey va Singapur kabi bir qator yetakchi mamlakatlarning tashqi savdo siyosati tahlilini ko'rib chiqdik. Ushbu tahlillarning asosiy yo'nalishlari sifatida savdo hajmi, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalardagi o'rni, eksport modeli, asosiy savdo hamkorlari,

savdo bitimlari, valyuta siyosati, tashqi savdo rivojiga mavjud to'siqlar va innovatsion o'sish

drayverlari tanlab olindi va har bir mamlakat miqyosida ko'rib chiqildi.

3-jadval

Xorijiy mamlakatlarda tashqi savdo siyosati tahlili

AQSh	
Yo'nalish	Tafsifi
Savdo hajmi	Yirik eksport va import bozori, global savdo tarmog'ining yetakchi ishtirokchisi
Davlat siyosatining roli	Savdo urushlari, proteksionistik choralar, kongress orqali siyosat belgilanishi
Eksport modeli	Yuqori texnologik mahsulotlar, xizmatlar, intellektual mulk
Savdo hamkorlari	Kanada, Meksika, Xitoy, Yevropa Ittifoqi
Erkin savdo bitimlari	USMCA, WTO doirasidagi faol ishtirok
Valyuta siyosati	Erkin kurs, ammo tartibga solishdan bo'sh emas
To'siqlar	Texnik standartlar, xavfsizlik va intellektual mulk himoyasi
Innovatsion o'sish	Silicon Valley, davlat grantlari orqali qo'llab-quvvatlash
Germaniya	
Savdo hajmi	Dunyo bo'yicha 3-o'rinda, Yevropaning eng yirik eksportchisi
Davlat siyosatining roli	Ishlab chiqaruvchilarni subsidiyalash, YI siyosati orqali qo'llab-quvvatlash
Eksport modeli	Sanoat asbob-uskunalar, avtomobillar, kimyo sanoati
Savdo hamkorlari	Fransiya, Italiya, AQSh, Polsha, Xitoy
Erkin savdo bitimlari	YI doirasida erkin bozor va umumiy tariflar
Valyuta siyosati	Yevro zonasi orqali boshqariladi
To'siqlar	Sifat va xavfsizlik standartlari
Innovatsion o'sish	Ilm-fan va texnologiyaga katta e'tibor
Yaponiya	
Savdo hajmi	Yirik eksportchi, ayniqsa avtomobillar va elektronika bo'yicha
Davlat siyosatining roli	MITI orqali rejalashtirish va yo'naltirish
Eksport modeli	Yuqori sifatli va texnologik mahsulotlar
Savdo hamkorlari	Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya
Erkin savdo bitimlari	RCEP, ASEAN+3, WTO
Valyuta siyosati	Yapon iyenasi kursini nazorat qilish orqali eksportga qulaylik
To'siqlar	Kuchli texnik va sanitariya talablarning mavjudligi
Innovatsion o'sish	Toyota, Sony, Honda kabi brendlar orqali namoyon bo'ladi
Janubiy Koreya	
Savdo hajmi	Dunyo bo'yicha yirik eksportchi, ayniqsa yarim o'tkazgichlar bo'yicha
Davlat siyosatining roli	Eksportga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyasi
Eksport modeli	Elektronika, avtomobil, kemasozlik
Savdo hamkorlari	Xitoy, AQSh, Yevropa, ASEAN
Erkin savdo bitimlari	Ko'plab FTA'lar, RCEP
Valyuta siyosati	Kursni maqbullashtirish orqali raqobatbardoshlik
To'siqlar	Ichki sanoatni himoya qiluvchi texnik to'siqlar
Innovatsion o'sish	Samsung, LG, Hyundai kabi yirik kompaniyalar
Singapur	
Savdo hajmi	Jahon bo'yicha xizmatlar va qayta eksport bo'yicha yetakchi
Davlat siyosatining roli	Erkin savdo va investorlar uchun qulay muhit
Eksport modeli	Qayta ishlovchi sanoat, moliyaviy xizmatlar
Savdo hamkorlari	Xitoy, Malayziya, Indoneziya, AQSh
Erkin savdo bitimlari	RCEP, ASEAN, WTO, ko'plab FTA'lar
Valyuta siyosati	Valyuta nazorati orqali makroiqtisodiy barqarorlik
To'siqlar	Minimal, erkin port siyosati
Innovatsion o'sish	Smart-nation strategiyasi, texnoparklar

Xitoy	
Savdo hajmi	<i>Dunyoning eng yirik eksportchisi, ikkinchi yirik importchisi</i>
Davlat siyosatining roli	<i>Tashqi savdo to'liq hukumat rejalashtiruv asosida</i>
Eksport modeli	<i>Past narxli mahsulotlardan yuqori texnologiyaga o'tish</i>
Savdo hamkorlari	<i>AQSh, ASEAN, Yevropa Ittifoqi, Afrika</i>
Erkin savdo bitimlari	<i>RCEP, BRI tashabbusi</i>
Valyuta siyosati	<i>Yuan kursini nazorat qilish orqali eksportni rag'batlantirish</i>
To'siqlar	<i>Texnik standartlar, litsenziyalar, kvotalar</i>
Innovatsion o'sish	<i>Made in China 2025 strategiyasi orqali texnologiyaga o'tish</i>

Ushbu mamlakatlarning jahon savdosida tutgan o'rnini juda muhim hisoblanadi va dunyoning juda ko'plab mamlakatlari ushbu mamlakatlarning tashqi savdo siyosati ta'sirida harakat qiladi. Aynan ushbu mamlakatlarni tahlil qilishimizga bir qancha sabablar mavjud, jumladan AQSh hozirda dunyo savdo siyosatini shakllantiruvchi asosiy yetakchilardan hisoblanadi, Germaniya Yevropa iqtisodiyotining lokomotivi sifatida global ishlab chiqarish zanjirlarida muhim rol o'ynaydi, Yaponiya innovatsion rivojlanishga asoslangan o'ziga hos industrial modelga asoslangan, Janubiy Koreya qisqa muddatda rivojlangan davlatga aylangan model [13], Singapur logitika, moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha na'muna, Xitoy tovar va narx diversifikatsiyasi, moliyaviy inqirozlarga tez moslashish bo'yicha katta tajriba egasidir.

Xulosa va takliflar.

Jahondagi yetakchi mamlakatlar tashqi savdo siyosatining tahlili ularning iqtisodiy taraqqiyotida tashqi savdo vositalaridan strategik va tizimli asosda foydalanilganini ko'rsatadi. Ushbu mamlakatlar o'zlarining sanoat salohiyati, innovatsion imkoniyatlari va ichki bozor xususiyatlarini hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirishgan. Jumladan, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa ilg'or iqtisodiyotlar eksportni rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar, texnologik ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash, bojxona-tarif siyosatini ichki ishlab chiqaruvchilarni muhofaza qilish bilan

uyg'unlashtirish orqali raqobatbardosh tashqi savdo tizimini yaratishga erishgan.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar turli shakldagi erkin savdo bitimlari (FTA), regional iqtisodiy bloklar (masalan, Yevropa Ittifoqi, NAFTA, RCEP), va Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) doirasida faol ishtirok etish orqali o'z mahsulotlariga yangi bozorlar ochgan, sarmoya jalb qilgan va global ta'minot zanjirlarida muhim o'rin egallagan. Ular bojxona-tarif siyosatini qat'iy, lekin moslashuvchan asosda olib borib, strategik sohalarni himoya qilish bilan birga, raqobat muhitini rag'batlantirgan. Notarif to'siqlar orqali esa sog'liqni saqlash, xavfsizlik va ekologik me'yorlarni ustuvor qilgan.

Mazkur mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali tashqi savdo siyosati - bu nafaqat bojxona tariflari darajasini belgilash, balki texnologik modernizatsiya, eksport salohiyatini oshirish, biznes muhitini yaxshilash va savdo diplomatiyasini rivojlantirishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdir. Ushbu tajribalar asosida qayd etish mumkinki, tashqi savdo siyosatini faqatgina bojxona imtiyozlari bilan emas, balki iqtisodiy strukturani diversifikatsiyalash, eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish, xalqaro savdo tashkilotlari va mintaqaviy tashkilotlar bilan integratsiyani kuchaytirish orqali takomillashtirish lozim. Bundan tashqari, tashqi bozorlar talabini puxta o'rganish, sifat va standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar eksportini rivojlantirish kabi yo'nalishlar ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibadullayev, E. (2025). Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida). *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 3(4).
2. Suhud, U., Sania, N., Prabawani, B., Azinuddin, M., Ibadullaev, E., Sherov, A., ... & Matkarimov, F. (2025). Soundscapes of Loyalty: Modeling Revisit Intention in Ethnic Music Tourism within a Sustainable Tourism Framework. *Journal of Posthumanism*, 5(5), 2467-2492.
3. Baldwin, R. (2016). *The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization*. Harvard University Press.
4. Rodrik, D. (2011). *The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy*. W. W. Norton & Company
5. World Trade Organization. (2023). *World Trade Report 2023: Re-globalization for a resilient, inclusive and sustainable future*. Retrieved from <https://www.wto.org>
6. International Monetary Fund. (2024). *World Economic Outlook: Navigating Global Divergences*. Retrieved from <https://www.imf.org>
7. Nasirov, B. X. (2021). Eksport tarkibini diversifikatsiyalash – tashqi savdo barqarorligini ta'minlash omili. *Iqtisodiy tadqiqotlar*, (4), 30–35.
8. Nurmuxamedov, Sh. (2023). Rivojlangan mamlakatlarning erkin savdo bitimlari tajribasi va O'zbekiston uchun ahamiyati. *TDIU ilmiy axborotnomasi*, (1), 58–64.
9. Madraximov, Q. (2022). O'zbekiston tashqi savdo siyosatini takomillashtirishda rivojlangan davlatlar tajribasi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (2), 45–52.
10. Sobirov, Y., Saidmamatov, O., Matyakubov, U., Khodjaniyazov, E., Ibadullaev, E., Bekjanov, D. and Nodirbek, F. (2024), "The Nexus Between Women Employment and Tourism in Central Asia Countries: A Dynamic Panel Data Approach", Chen, J.S. (Ed.) *Advances in Hospitality and Leisure*, Volume 20 (*Advances in Hospitality and Leisure*, Vol. 20), Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 55-78. <https://doi.org/10.1108/S1745-354220240000020004>
11. Ibadullaev, E., Pagliacci, F., Defrancesco, E., Matyakubov, U., Butanova, D., & Matkarimov, F. (2024). Farmers attitudes on agritourism activity development in Uzbekistan: Khorezm region case study. *Research on World Agricultural Economy*, 6(1), 435–451. <https://doi.org/10.36956/rwae.v6i1.1474>
12. Yulduz, Y., Xolilla, X., Fozil, X., Xosiyat, M., Gulnoza, Z., Zilola, A., & Komil, S. (2025). Impact of Energy Consumption on Agricultural Economics in Uzbekistan: An ARDL Approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 15(3), 138–145. <https://doi.org/10.32479/ijeep.18120>
13. Fozil Xolmurotov, Obidjon Khamidov, Sukhrob Davlatov, Ergash Ibadullaev, Xolilla Xolmurotov, Alisher Sherov and Gulsanam Arabova (2025). The impact of renewable energy consumption on unemployment rates in Uzbekistan: An ARDL approach. *Environmental Economics*, 16(1), 78-88. doi:[10.21511/ee.16\(1\).2025.06](https://doi.org/10.21511/ee.16(1).2025.06)